

MODERN ADABIYOTI HAqidagi NAZARIY VA TAHLILiy QARASHLAR

Beshimova Mohinoz Erkin qizi

mohinozbeshimova@mail.ru

+998991214361

Annotatsiya. XX asrning ilk davrlarida jahonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhit insoniyat oldiga olamga boshqa rakursdan qarash ehtiyojini tug'dirdi. Ijtimoiy hayotga yangicha nuqtayi nazar bilan yondashuv esa dastlab san'at, xususan, adabiyot soha vakillarining chekiga tushdi, bu esa san'at sohasida modernizm oqimining shakllanishiga zamin hozirladi. Jhon adabiyotining zabardast vakillari Joys, Kafka, Kamyu ijodi orqali adabiyot sahnasiga kirib kelgan modernizm o'zining qator xususiyatlari bilan adabiyotshunos olimlar va boshqa san'at vakillari e'tiborini tortdi. Keyingi davr mobaynida Freyd, Yung, Nitsshi kabi olimlar nazariyasidan suv ichgan ushbu oqim badiiy adabiyotda inson obrazini yangi bir pog'onaga olib chiqdi va uning ichki dunyosi, ruhiyatini asar bosh g'oyasi sifatida talqin qildi. Modernizm oqimi turli millat adabiyotlarida o'ziga xos o'rniga ega bo'ldi. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotshunosligida modernizm hodisasi nazariy jihatdan o'r ganilishi, modernistik ruhda yozilgan asarlarga bo'lgan ilmiy munosabat soha vakillari bildirgan fikr-mulohazalar yuzasidan tadqiq qilindi. Bu maqolada yoritilgan bahs-munozaralar orqali ushbu adabiy hodisa adabiyotshunolik va abadiiy adabiyot uchun muhim ekanligi, uni nazariy jihatdan chuqur o'r ganilish talab qilinishining guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: ijodiy metod va oqimlar, romantizm, realizm, modernizm, sotsialistik-realizm, psixo-analitik uslub, individualizm, ekspressionizm, avangardizm, dekadans, naturalizm, dadaizm, elitar, xoslar adabiyoti

Abstract. The socio-political and economic environment that took place in the world in the early 20th century created a need for humanity to look at the world from a different perspective. The approach to social life from a new perspective was initially limited to representatives of the arts, especially literature, which paved the way for the formation of the modernist movement in the field of art. Modernism, which entered the literary scene through the works of the great representatives of world literature Joyce, Kafka, and Kamyu, attracted the attention of literary scholars and other artists with its many features. Over the next period, this movement, which was inspired by the theories of scientists such as Freud, Jung, and Nietzsche, took the image of man to a new level in fiction and interpreted his inner world and psyche as the main idea of the work. The modernist movement took its own place in the literature of various nations. This article examines the theoretical study of the phenomenon of modernism in Uzbek literary

studies, the scientific attitude towards works written in the modernist spirit, and the opinions expressed by representatives of the field. Through the debates covered in this article, we can see that this literary phenomenon is important for literary studies and fiction, and that it requires in-depth theoretical study.

Keywords: creative methods and trends, romanticism, realism, modernism, social realism, psychoanalytic style, individualism, expressionism, avant-garde, decadence, naturalism, dadaism, elitist, Khoslar literature.

San’at va adabiyotning vujudga kelgan davridan to hozirgi kungacha asosiy mavzusi inson va uning hayoti bo‘lib kelgan. Badiiy adabiyot boshqa sohalardan farqli o‘laroq inson qalbini, uning jamiyatda tutgan o‘rni-yu taqdirini, his-tuyg‘ularini asosiy mavzu qilib olgan. Ijodkor ahli real obyektiv olamni va unda yuz beradigan voqeahodisalarni o‘z yo‘nalish va uslubiga moslab tasvirlashadi. Qadimgi yunon afsonalariga ko‘ra mashhur dramaturg Sofoklning shunday jumlesi bor: “Men odamlarni ular qanday bo‘lishi lozim bo‘lsa, shunday tasvir etaman, Evripid esa odamlarni aslida qanday bo‘lsa, shunday tasvir etadi”.(Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005. B.239.) Buyuk yunon faylasufi Arastu ham bu masalaga alohida to‘xtalib o‘tadi. “San’atkorlar muayyan shaxslarni tasvirlaydilar, ular esa yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin... Ular bizdan yaxshiroq yoki bizdan yomonroq, yoki hatto bizdek bo‘ladilar... Homer eng yaxshilarini. Kleofont – oddiy odamlarni...Gegemon esa yomon odamlarni gavdalantirgan”. (Arastu Poetika. – T.:Yangi asr avlod, 2011. B.21) Bundan ko‘rinib turadiki, insoniyat badiiy fikrlashining dastlabki bosqichlaridan boshlab metod uning asarlarini bosh mezonlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Aytish joizki, har bir ijodkor subyektiv olamini o‘zi yaratadi. Kimsidir odamlarni va hayotni qanday bo‘lsa shundayligicha badiiy adabiyotga olib kirsa, ayrim ijodkorlar obraz va voqealarni o‘z ideallari, orzu va o‘yxayollari kabi tasvirlab beradilar. Shunga ko‘ra adabiyotshunoslar ijod ahlini ikkita katta guruhga: romantizm va realizm tiplariga bo‘lishadi. Adabiyotshunos D.Quranov bu ikki turga shunday ta’rif beradi: “Hayotni badiiy aks ettirishning realistik prinsipi xarakterlarning ularni shakllamtirgan ijtimoiy-tarixiy sharoitga, ko‘proq shu sharoit bilan belgilanuvchi xarakter mantiqiga muvofiq harakat qilishlarini taqazo qiladi... Norealistik (romantizm) asarda esa qahramon o‘zining konkret sharoitda shakllangan xarakteri mantiqidan kelib chiqib harakat qilmaydi, balki yozuvchining qarashlari va idealiga mos tarzda harakatlantiriladi”.(Quranov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007. B.211) Har ikki metod garchi bir-biriga qarshi tursa-da, lekin maqsad va vazifalarda bir nuqtada birlasha olishadi. Har ikkisi ham aslida yozuvchi yoki shoirning ijodiy mehnat mahsuli. Har ikkisining ham markazida inson turadi.

Lekin insoniyatning badiiy fikrlash evolyutsiyasi jarayonida ushbu ikki metod boshqa oqimlarning vujudga kelishiga dastlabki bosqich vazifasini o‘tadi. Badiiy

adabiyot hamma vaqt ijtimoiy hayot va jamiyat bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Jamiyat va inson o‘rtasida ma’lum bir ko‘prik vazifasini bajargani sababli ham bu ikki metod adabiyotda keyinchalik rivojlanib, boshqa “izm”larning vujudga kelishiga zamin hozirladi. Klassitsizm, ratsionalizm, sentimentalism, simvolizm, naturalizm, modernizm, futurism, postmodernizm kabi oqimlar shular jumlasidan bo‘lib, bularning badiiy adabiyotda bo‘y ko‘rsatishiga ijtimoiy muhit va kishilik jamiyatdagi o‘zgarishlar sabab bo‘ldi. Chunki badiiy adabiyotning bosh mavzusi inson bo‘lgani uchun uning rivojlanishida inson yashayotgan muhit va jamiyat ham alohida rol o‘ynaydi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Yevropa davlatlarida yuz bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar san’atning boshqa yo‘nalishlari, jumladan, badiiy adabiyotda ham yangi oqimning yuzaga chiqishini taqazo qilayotgan edi. Sababi insoniyat ayni o‘sha davrda ikkita jahon urushini guvohi bo‘lib, umidsizlik sari ketayotgan, uning jismi emas, balki ruhi ham yaralangandi. Endilikda inson real hayotda umuman baxtli bo‘lolmasligiga ishondi va o‘zining ichki botiniga “qamalib oldi”. Aynan mana shu davr fojilarini o‘zida mujassamlashtirgan oqim modernizm adabiyot sahnasiga kirib keldi. Ushbu oqim Yevropa davlatlari milliy adabiyotlarini yangi bir bosqichga olib chiqdi. Chunki u badiiy asarda tub yangilanishlar bilan boshqa “izm”lardan ajralib turdi va shu sabali ham ko‘plab bahs-munozaralarga sababchi bo‘ldi. Endilikda o‘quvchi badiiy asarni oddiygina o‘qib, xulosa chiqarishdan tashqari ongini ham tafakkurini ham ishga solib, satrlar ostida yashiringan ma’noni anglashga va uqushta urinishga majbur. Modernizm ana shunday murakkab vazifasini o‘quvchi qarshisiga qo‘ya oldi. “An’analarga emas, o‘zgarishlar doimiyligiga tayangan modern adabiyot inson didi va qarashlaridagi o‘zgarishlar ifodasi o‘laroq yuzaga keldi. Oldinlari ijodkorlardan muvaffaqiyatli hisoblangan adabiy shakl yoxud uslubning yangi imkoniyatlarini topish talab qilinardi. Modernizmda esa oldin orttirilgan tajribalarni takrorlanmaslik asosiy talabga aylandi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida ham shunday jarayon kechmoqdaki, uni to‘g‘ri izohlash, ilmiy tadqiq etish va xolis baholash adabiyotshunoslik oldida turgan asosiy vazifalardan biridir”. (Yo‘ldoshev Q. Mustaqillik davri adabiyoti. Anglashning uzun yo‘li. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.) Ushbu ta’rif adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev tomonidan berilgan bo‘lib, modernizm insonning badiiy-estetik yondashuvining yangi davri ekanligi unga yuzaki emas, balki chuqur ilmiy nazariya bilan yondashishni talab qilishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Chunki modernizm mavjud barcha an’analarni adabiy shakl va mavjud qoidalarga qarshi chiqdi. Modernistik ruhda yozigan asarlarni o‘zining makon va zamon qorishiqligi, syujetning kutilmagan jumboqlarga va sirlarga boyligi, favqulodda o‘xshatishlar va tasvir vositalari bilan, dastlab, o‘quvchini esankiratib qo‘yadi. Lekin “kosa tagida nim kosani” anglagan sari yozuvchining asl maqsadini anglab borasan kishi.

Modernizm quyidagi badiiy o‘ziga xos belgilari bilan ajralib turdi:

- 1) san’atning ijtimoiy mazmundan uzoqlashyotgani;
- 2) muayyan qoliplarga tushmaslikka intilayotgani;
- 3) badiiy yaratiqlarning faqat san’at asarigina bo‘lishga urinayotgani;
- 4) san’atga o‘yin deb qarashga moyillik kuchayishi;
- 5) kinoyaga moyillik ortgani;
- 6) soxta ko‘tarinkilik va sun’iy chaqiriqlardan qochayotganligi;
- 7) ifodaning mukammalligiga intilish ortgani;
- 8) san’atning mafkuradan yiroq bo‘lishiga urinish kuchaygani kabi tamoyillari borligi yaqqol seziladi. (Yo‘ldoshev Q. Mustaqillik davri adabiyoti. Anglashning uzun yo‘li. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2006.)

Modernizmning asosiy maqsadi, reallikni an'anaviy shakllardan chetga chiqib, noan'anaviy uslublarda ifodalash va uning murakkab tuzilishini tasvirlashdir. Bu jarayonda shakl, mazmun va ifodaning uzviy birligi emas, balki ularning alohida aloqadorligi, o‘zaro bog‘lanishi va o‘ziga xos aloqalari tahlil qilinadi. Modernistik ruhdagi asarlarda g'oya va mazmun bilan bir qatorda, asar kompozitsiyasida ham qator o‘zgarishlar amalga oshirilishiga bir turtki bo‘ldi. Buni Muhammadjon Xolbekov shunday izohlaydi:

“a) semantik, ya’ni u yoki bu badiiy ko‘chimning semantik maydonini tanlash;
 b) axbarot, ya’ni qahramonlar haqida biron ma’lumot keltirilmasligi, personajlarning obyektiv tavsifi yo‘qligi, rivoyaning chalkash-chulkash, uzuq-yuluqligi, asarda yechim yo‘qligi;

d) mafkuraviy, ya’ni asosiy urg‘u tagma’noga ko‘chirilishi, muallif konsepsiysi ochiq matn va tagma’nodagi o‘zaro nisbat o‘zgarishi orqali aniqlanishi, bilvosita ko‘chirma gapga murojaat etilishi, voqealarni muallif yoki boshqa shaxs tilidan hikoya qilishning qahramon ichki nutqiga almashtirilishi;

e) kompozitsion, ya’ni havola etilayotgan materialning xronologik betartibligi, mantiqsizligi, rivoyaning inversivligi, syujet chiziqlarining chigallashtirilib yuborilishi va matn ravonligi buzilishi;

f) assotsiativ, ya’ni kitobxon idrok etishi qiyin bo‘lgan obraz, tushuncha, tasavvur, histuyg‘u va hakozolarning o‘zaro bog‘langan subyektiv aloqadorligi”. (Xolbekov M. Ong oqimi – rivoya shaklimi yoki janr? Tafakkur, 2011. 4-soni.)

Jahon adabiyotida modernizm oqimining “otasi” sifatida irlansiyalik yozuvchi Jeyms Joys deb tan olingan. Uning 1922-yilda yaxlit kitob holida nashr qilingan “Uliss” asari ko‘plab adabiyotshunos olimlar bilan bir qatorda oddiy kitobxonlarni ham o‘ziga jalb qildi. “Jeyms Joys adabiyot maydonida yangicha poetik uslub kashfiyotchisi sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu uslubda badiiy shakl o‘zida g‘oyaviy, psixologik va boshqa jihatlarni mujassam etib, mazmun o‘rnini bosa oladigan darajada namoyon bo‘ldi”. (<https://kh-davron.uz>) Asarda deyarli hech qanday voqea-hodisa

tasvirlanmaydi. Unda obrazlarning o‘y-fikrlari, xayollari muayyan qoliplarga solinmagan holda bayon qilinadi. Bayon qilinishi hech qanday qoidaga bo‘ysunmaydi. Chunki tasvirlar ba’zida o‘ziga hech ham aloqasi bo‘lmagan boshqa mavzuga o‘tib ketish holatlari ham uchrab turadi. Bu esa insonning ichki ong osti sirlari hamda psixologiyasi bilan chambarchas bog‘liq.

Modernizm oqimining rivojlanish jarayoni F.Kafka, A.Kamyu, Bekket, Tomas Man kabi ijodkorlar nomi bilan bog‘liq. Ularning qalamiga mansub asarlar ushbu oqimning boshqa mamlakatlariga yoyilishiga bir turtki bo‘ldi deb ayta olamiz. Keyingi yillar davomida esa modernizm Zigmund Freyd va Karl Gustav Yung kabi psixo-analitik asoschilari g‘oyalaridan ham oziqlanib rivojlanganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek adabiyotiga modernizm o‘tgan asrning 20-yillarida kirib keldi. Abdurahmon Sa’diy va Fitrat o‘zlarining adabiyot sohasiga bag‘ishlangan dasrliklarida jahonda endigina kurtak yozayotgan ushbu oqimga alohida to‘xtalib, u haqida ilmiy va nazariy fikrlarini bildirib o‘tishgan. O‘scha davr adabiyotshunosligiga munosib hissa qo‘shgan olimlardan biri Abdurahmon Sa’diy o‘zining “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligida ijodiy metodlar, xususan, modernizmning vujudga kelishi va yoyilishiga o‘z ilmiy izlanishlari nutayi nazaridan yondashadi. “Mo‘dernizm Anglitarada tug‘ulg‘andir. Bu oqim adabiyot dunyosida tug‘ulg‘an fanni va ijtimoiy oqimlarg‘a qarshi ham ularga butkul xilof bo‘lg‘an bir oqim yoki shundog‘ bir she‘r maktabidir. Bu maktab shoirlari ro‘montiklar kabi moddiy dunyodan boshqa dunyoni shaxsning ichki dunyosin tasvir qilishni eng birinchi plong‘a qo‘ydilar. Moddiy dunyog‘a ham ijtimoiy munosabatlarning hammasiga qarshi turdilar”. (Abdurahmon S. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – T.:Bookmany print, 2025.) Modernist ijodkorlar obyektiv olam va tashqi reallikni butunlay inkor etib, badiiy adabiyotda yangicha reallik yaratishga harakat qildilar. Asar syujetidagi voqeа-hodisalarni o‘z botinlariga olib kirdilar. Endi tasvirlarda insonning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, mavqesi, xatti-harakatlari, ijtimoiy hayoti emas, balki uning his-tuyg‘ulari, ong osti fikrlari asarning bosh g‘oyasini belgilab berdi. Shu orqali ijodkor ba’zan tagma’no, ba’zan ramzlar orqali ijtimoiy muhitni tahlil qildi. Syujet va kompozisiya butunlay ijodkor ideali va xayollariga bo‘ysundirildi. Ushbu xususiyat bilan bu yo‘nalish romantizmga ham yaqin turadi. Shuningdek, olim oqim vakillari haqida ham so‘z yuritarkan: “Mo‘dernistlarcha ruhning eng muhim vaqt hamda eng muhim ruhiy holat moddiy bo‘lmag‘an olamga, ma’naviyatg‘a o‘zin yaqin his etkan sog‘atlardir. Shuning uchun bular voqeiy narsalarning o‘zlariga emas, balki kishiga bergen hislariga, kishida qoldirg‘an tasavvurlariga katta qiymat beradilar. Bularcha hislar kishining ruhin eng yuqori martabalarga oshiradir ”. Modernist vakillari o‘z uydirmalarini, xayollarini va inson ichki holatini haqiqiy erk va baxt deb biladilar. Inson faqatgina o‘z xayollaridagina baxtli bo‘la olsihiga ishondilar va buni badiiy adabiyotga olib kirdilar. Modernistik asarlarda ramziylik va jumboqli tasvir usullari muhim o‘rin tutadi. Ba’zan

yozuvchi va shoirlar asar mazmunini mana shu narsaga bo‘ysundirish holatlari uchrab turadi. Bunday asarlar yakunida hatto adibning o‘zi ham nima ma’no chiqishini bilmay qolishi mumkin. Buni professor shunday baholaydi: “Munga shoirdag‘i ortiq hayajon, shoshqinliq darajasindagi bir qaynash, qizish, to‘palonchiliq ham qo‘shiladur. Bunisi bayronizmg‘a olib boradir. Mo‘dernizmni simvolizmning ikkinchi turli davomidir deb anglash ham mumkindir”. Ushbu holat aynan o‘zbek adabiyotining istiqlol davri dastlabki yillarida tajriba sifatida yuzaga kelgan asarlarda yaqqol sezilib turadi. Modernizmga oid ikkinchi ilmiy manba bu Abdurauf Fitratning 1926-yilda e’lon qilingan “Adabiyot qoidalari” asari bo‘lib, kitobning “Adabiyotda oqim istilohlari” bobida modernizm haqidagi fikrlari joy olgan. Afsuski, professor modernizmning faqatgina termin sifatida ta’rif berish bilan cheklanadi. “...bu oqim ro‘montizm oqimidir. Bu oqim ijtimoiy harakatlarga, fanniy tushunishga qarshi bir oqimdir”. (Abdurauf F. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2009. B,85.) Adabiyotshunosning bunga atroflicha to‘xtalmaganiga, balki o‘sha davr muhiti sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Chunki tobora ildiz otib borayotgan Sho‘ro davlati adabiyotni ham o‘z mafkurasi quroliga aylantirishga kirishgan edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hukumat tomonidan badiiy muhitga sotsial realizm qolipi “kiydirilishining” dastlabki yillari aynan darslik e’lon qilingan yillarga to‘g‘ri kelganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Modernizm ilmiy jihatdan o‘rganilishidan tashqari, badiiy adabiyotda ham asta bo‘y ko‘rsatayotgan edi. Bu yo‘nalishning she’riyat va nasrda ilk topilmalari bizni Cho‘lpon ijodiga boshlaydi. Cho‘lpon o‘z ijodi bilan adabiyotgan yangi bir nafas olib kirgan ijodkor. U haroratli she’rlari, takrorlanmas satrlari bilan “avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas” bir yo‘l yarata oldi va bu yo‘ldan dadil qadamlar tashladi. Uning ijodi Sharq va G‘arb adabiyoti bilan bir qatorda mumtoz va zamonaviy adabiy jarayondan suv ichgan holda o‘zbek adabiyotining yangi davrining boshlab beruvchi sarbonlarda biri deb bemalol ayta olishimiz mumkin. “Eski adabiyot bilan yangi adabiyotning o‘rtasida qolg‘on sharqli yosh chinakam chuchmal bir vaziyatdadir. Eski adabiyot bir shirin, yangisi yana shirin, g‘arbniki tag‘in —yana shirin. Qaysi bittasiga ko‘proq berilsin? Biri biridan shirin axir! Bizning o‘zbeklar uchun hali hozirg‘a u xil chuchmallik yo‘q. Nimaga desangiz, o‘zbeklar eskidan — hech sababsiz — arazlag‘on, xafa; yangiga — endigina suqilib kirmoqda U adabiyot maydonida yangilikka nisbatan: yosh bola go‘dak, chaqaloq, eskilikka nisbatan: yetim, kimsasiz; besprizorniy, o‘zboshli! Jur’at qilib: «yo‘lsiz» deb yuborayin deymenu, qo‘rqamen; negakim o‘zim yo‘lsizman”. (Cho‘lpon Ulug‘hindi. <https://n.ziyouz.com>) Darhaqiqat, uning ijodi Sharq va G‘arb adabiyoti bilan bir qatorda mumtoz va zamonaviy adabiy jarayondan suv ichgan holda o‘zbek adabiyotining yangi davrining boshlab beruvchi sarbonlarda biri deb bemalol ayta olishimiz mumkin.

Tobora ildiz otib borayotgan Sho‘rolar hukumatiga “an’analarni rad qiladigan emas”, balki o‘z mafkurasiga bo‘ysunadigan va o‘zini madh etadigan adabiyot lozim edi. Shu sababli ham 1934-yilda Sobiq Sovet yozuvchilari I syezdida sotsialistik realizm sovet adabiyoti, shu bilan bir qatorda uning tarkibiga kirgan mustamlaka millatlar adabiyotida asosiy ijodiy metod bo‘lishi haqida qaror qabul qilindi. Bundan keyin chop qilingan adabiyotshunoslik qo‘llanmalarida esa romantizm, realizm va sotsialistik realizm kabi metodlar haqida yozildi. Amalda esa badiiy adabiyotga sotsialistik realizm qolipi “kiydirildi”. Nashr qilinayotgan har bir asarlarga asosan mana shu qolip asosida baho berilardi. Chiqarilayotgan har bir asarga partiya va u tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning nafasi ufurib turishi kerak, hamma teng hech kim boy yoki kambag‘al emas kabi sinfiylik nazariyasi va barcha baxtiyor shiori ostida konfliksiz nazariyasi nuqtayi nazari bilan yondashildi, tahlil qilindi. Buning natijasida adabiyotimiz yetmish yil davomida jahonda yuz berayotgan yangiliklardan mahrum qilindi. Modernizm va boshqa adabiy oqimlarning yana o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi esa o‘tgan asrning 80-yillari oxiri va mustaqilligimizning dastlabki yillariga to‘g‘ri keldi. She’riyatda va nasrda endilikda yaqqol namoyon bo‘lgan modernizm o‘z xususiyatlari bilan tanqidlar ostida qolsa ham, “...yashayotgan va yashashga da’vogar, yashashga haqli oqim” sifatida bugungi kungacha davom qilib kelyapti. 90-yillardan boshlab modernizm haqidagi ilmiy nazariyalar maqola sifatida dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lsa ham, bu jarayon 2020-yili Ulug‘bek Hamdamovning “Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm” nomli darsligi sifatida davom qilib kelyapti. Zero adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganlaridek: “...modernizm bir turdagи jo‘n hodisa emas. Modernistik oqimlarni dabdurustdan tushunib olish ham muayyan qiyinchiliklarni tug‘diradi. Modern hodisalari hamma vaqt ham san’at va adabiyot hodisalariga biz beradigan ta’riflarga to‘g‘ri kelavermaydi”. (Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2002. 23-24-sonlar.)

Xulosa o‘rnida aytish joizki, modernizm o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgan yoxud bir guruh vakillari tomonidan o‘ylab topilgan oqim emas. U ham adabiyotda o‘z shakllanish va taraqqiyot bosqichiga ega bo‘lgan adabiy hodisa bo‘lib, izchil ilmiy va nazariy bilimlarni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdurahmon S. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari. – T.:Bookmany print, 2025.
2. Абдурауф Ф. Таңланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2009.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1978.
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – T.: Akademnashr, 2020.
5. Мустақиллик даври адабиёти – Тошкент: Faafur Fułom nomidagi нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006.
6. Quranov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2007.

7. Қуранов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Академнашр, 2010.
8. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O‘qituvchi, 2005.
9. Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Т.:Фарғона, 2009.
10. Xolbekov M. XX asr asr modern adabiyoti manzaralari. – Т.: Mumtoz so‘z, 2012.
11. Xolbekov M. Ong oqimi – rivoya shaklimi yoki janr? Tafakkur, 2011. 4-soni.
12. Sharafiddinov O. Modernizm jo‘n hodisa emas. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2002. 23-24-sonlarida.
13. Йўлдошев Қ. Мустақиллик даври адабиёти. Англашнинг узун йўли. – Т.: Ғафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2006.
14. <https://n.ziyouz.com>
15. https://kh-davron_uz